



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 352 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<i>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<i>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</i>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
<i>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</i>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
<i>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</i>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
<i>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<i>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</i>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
<i>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</i>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
<i>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</i>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
<i>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</i>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
<i>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</i>	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
<i>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</i>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
<i>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</i>	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
<i>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
<i>Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi</i>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
<i>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</i>	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
<i>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
<i>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</i>	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
<i>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
<i>Murodova Madina Karim qizi</i>	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
<i>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</i>	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<i>Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi.....	290
<i>Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</i>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri	296
<i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<i>Aygul Aralbayevna Urazimbetova</i>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<i>Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar	307
<i>Idiyeva Gulchehra Izomovna</i>	



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv	319
Laylo Baxtiyor qizi Axmedova	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari	323
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi	328
Samadov Sardor Sodiqovich	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni	340
Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili	344
Xiloldinova Zulayho	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li	



O'ZBEKISTON UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MAZMUN VA TIL INTEGRATSIYALASHGAN O'QITISH (CLIL) YONDASHUVINING PEDAGOGIK VA AMALIY IMKONIYATLARI

Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi

Ohangaron shahar 3-umum ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning) – ya'ni mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish metodikasi xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuv sifatida tahlil qilinadi. Unda CLILning maqsadlari, afzalliklari, xalqaro tajribadagi o'rni va O'zbekiston umumta'lim maktablarida qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Xususan, CLIL yondashuvi yordamida o'quvchilarda nafaqat chet tili bo'yicha kommunikativ kompetensiya, balki fanga oid bilimlarni ham samarali shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Maqola O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida CLILni qo'llashning ijobiy jihatlari ilmiy-nazariy va amaliy misollar bilan asoslaydi.

Kalit so'zlar: mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish, CLIL metodikasi, xorijiy til ta'limi, umumta'lim maktabi, innovatsion yondashuv, 4K modeli (kontent, kommunikatsiya, kognitsiya, madaniyat), metodik tavsiyalar.

Abstract: This article examines the Content and Language Integrated Learning (CLIL) methodology as an innovative approach to foreign language teaching. It explores the objectives and advantages of CLIL, its role in international practice, and the potential for its application in secondary schools in Uzbekistan. Special attention is given to how the CLIL approach can effectively develop not only students' communicative competence in a foreign language but also their subject knowledge. The article also provides methodological recommendations for overcoming possible challenges in implementing this approach. The benefits of applying CLIL in Uzbekistan's education system are substantiated from both scientific-theoretical and practical perspectives, with specific examples provided.

Key words: content and language integrated learning, CLIL methodology, foreign language teaching, secondary school, innovative approach, 4Cs model (content, communication, cognition, culture), methodological recommendations.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика интегрированного обучения содержанию и языку (CLIL – Content and Language Integrated Learning) как инновационный подход в преподавании иностранных языков. Анализируются цели и преимущества CLIL, его место в международной практике, а также возможности применения в общеобразовательных школах Узбекистана. Особое внимание уделено тому, как с помощью подхода CLIL можно эффективно формировать у учащихся не только коммуникативную компетенцию по иностранному языку, но и предметные знания. Кроме того, даны методические рекомендации по преодолению возможных трудностей при внедрении данного подхода. Статья обосновывает положительные стороны применения CLIL в образовательной системе Узбекистана с научно-теоретической и практической точек зрения, приводя конкретные примеры.

Ключевые слова: интегрированное обучение содержанию и языку, методика CLIL, обучение иностранным языкам, общеобразовательная школа, инновационный подход, модель 4C (контент, коммуникация, когнитивия, культура), методические рекомендации.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–1875-son¹ qarorida umumta'lim maktablarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini yuksaltirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan^[1]. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi"da 2030-yilga borib har bir bitiruvchi kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilishi lozimligi ta'kidlangan^[2].

1 <https://lex.uz/docs/-2126032>



Shu jarayonda chet tillarini o'qitishda yangicha, samarali yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masalaga aylandi. An'anaviy dars uslublarida o'quvchilar tilni alohida o'rganadi, biroq u orqali boshqa fanlarni o'zlashtirish imkoniyati kam bo'ladi. Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) metodikasi esa ushbu bo'shliqni to'ldiradi – u o'quvchilarga bir vaqtning o'zida fan bo'yicha bilim va xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

CLIL yondashuvi Yevropa mamlakatlarida 1990-yillardan beri muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Yevropa Komissiyasi tomonidan 2006-yilda chop etilgan "Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish" hisobotida ushbu metodikaning boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida keng joriy etilgani va ijobiy natijalar bergani qayd etilgan [3]. Tadqiqotlarga ko'ra, CLIL nafaqat til o'rganishni, balki o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi, madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi [4].

O'zbekiston ta'lim tizimida mazkur yondashuv hali keng tatbiq qilinmagan bo'lsa-da, ayrim xususiy til o'qitish markazlarida CLIL elementlari sinov tariqasida qo'llanilib, samarali natijalar berayotgani kuzatilmoqda [5]. Shu bois ushbu maqolada CLIL metodikasining nazariy asoslari, O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari va metodik tavsiyalari tahlil qilinadi.

Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) metodikasi mohiyatan ikki yo'nalishni uyg'unlashtiradi – fan mazmunini o'zlashtirish va shu jarayonda chet tilini amaliy muloqot vositasi sifatida qo'llash. Bu yondashuvda til o'rganish jarayoni sun'iy ravishda emas, balki tabiiy ta'limiy kontekstda amalga oshadi. O'quvchi yangi atamalar va iboralarni real fan mavzularini o'rganish chog'ida eshitadi, yozadi va qo'llaydi, natijada til bilimlari mustahkamlanadi va muloqotga bo'lgan ishonchi ortadi [6]. CLIL konsepsiyasi 1994-yilda tadqiqotchilar Devid Marsh va Anna Maljers tomonidan metodika sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan [7]. Ularning ta'rificha, bu – qo'shimcha til yordamida ham fan, ham tilni birgalikda o'rgatishga yo'naltirilgan ikki maqsadli ta'limiy yondashuvdir. Coyle, Hood va Marsh (2010) tomonidan ishlab chiqilgan "4K modeli" (kontent, kommunikatsiya, kognitsiya, madaniyat) CLILning nazariy asosini tashkil etadi. Mazkur modelga ko'ra:

- Kontent – o'quvchining fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- Kommunikatsiya – tilni muloqot vositasi sifatida faol ishlatish;
- Kognitsiya – tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish;
- Madaniyat – madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitishning asosiy maqsadlari o'quvchilarning ma'lum bir fan bo'yicha chuqur bilimni rivojlantirish bilan birga, chet tilidagi og'zaki va yozma muloqot malakasini oshirish, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat va ochiqlikni tarbiyalash, ta'lim jarayoniga hayotiy vaziyatlarni olib kirish orqali real hayotdagi muloqotga tayyorlash, shuningdek, ularning diqqat, motivatsiya, muammoni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini kuchaytirish hamda kelajakdagi oliy ta'lim bosqichi va kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlashdan iboratdir [8]. O'zbekiston sharoitida CLILning dolzarbligi, birinchidan, umumta'lim maktablarida ingliz tili 1-sinfdan boshlab o'qitilishi til o'rganish uchun yetarli vaqt berishi, biroq mazmuniy integratsiya yo'qligi sababli ko'plab bitiruvchilarning akademik sohada chet tilida erkin ishlash darajasiga yetmasligi; ikkinchidan, mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, xorijiy investitsiyalar va xalqaro hamkorlikning ortishi ko'p tilli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishi bilan izohlanadi [9]. Shu nuqtai nazardan, CLIL metodikasi nafaqat til kompetensiyasini oshirish, balki zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilarda til va fan o'rtasida uzviy bog'liqlik shakllanadi, bu esa ularning bilimlarni uzluksiz yangilab borish, mustaqil izlanish va global axborot makonidan foydalanish salohiyatini oshiradi. Bunday ko'nikmalar "Umr bo'yi ta'lim olish" tamoyilining amaliy ifodasi bo'lib, zamonaviy ta'lim falsafasining ajralmas qismiga aylanadi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) metodikasini tatbiq etish masalasi so'nggi yillarda ilmiy doiralar va amaliyotchi pedagoglar e'tiborini tobora ko'proq tortmoqda. Hozirda ayrim xususiy til markazlari va chet tillarini chuqurlashtirib o'qituvchi maktablarda CLIL elementlari sinov tariqasida qo'llanilmoqda. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, dars jarayoniga CLIL metodikasini kiritish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ular o'qiyotgan mavzuni nafaqat tushunadilar, balki uni chet tilida izohlash va muloqotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar [11].

Biroq davlat umumta'lim maktablari uchun CLIL'ni keng miqyosda joriy etish hali murakkab masala bo'lib qolmoqda. Avvalo, bu yondashuvni samarali qo'llash uchun ikki tomonlama malakaga ega o'qituvchilar – ya'ni



o'z fani bo'yicha puxta bilimli va shu bilan birga chet tilini yetarli darajada biladigan pedagoglar zarur. Hozirda esa ko'pchilik fan o'qituvchilari xorijiy tilda dars olib borish uchun yetarli til kompetensiyasiga ega emas, xorijiy til o'qituvchilari esa fanni chuqur o'qitish tajribasiga ega bo'lmashligi mumkin ^[12]. Yana bir muammo – o'quv-metodik materiallar taqchilligi. CLIL darslari uchun oddiy fan darsliklari yetarli emas, chunki ular til o'rgatish jihatidan moslashtirilmagan bo'ladi. Xorijiy tajribada CLIL uchun maxsus ishlab chiqilgan integrativ darslik va qo'llanmalar mavjud bo'lib, ularda til qiyinligi bosqichma-bosqich oshiriladi va fanga oid terminlar kontekstdagi matnlar orqali o'rgatiladi ^[13]. O'zbekistonda esa bunday maxsus o'quv materiallarini yaratish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shuningdek, CLIL metodikasi o'qituvchidan darsni rejalashtirish va tashkil etishda ancha yuqori darajadagi kreativlik hamda metodik yondashuv talab etadi. Dars jarayonida til va mazmun o'rtasidagi muvozanatni saqlash, o'quvchilarning til darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish, turli interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchi zimmasiga qo'shimcha yuklama beradi ^[14]. Shu bois CLIL'ni joriy etishda pedagoglar uchun maxsus qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish kurslari, ustoz-shogird dasturlari, xalqaro seminar va treninglar tashkil etish muhimdir.

Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, CLIL'ni bosqichma-bosqich joriy etish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun bir qator ijobiy natijalarni ta'minlashi mumkin. Avvalo, bu yondashuv o'quvchilarni global axborot makonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning akademik ingliz tilida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, CLIL madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa hozirgi globallashuv davrida alohida ahamiyatga ega ^[15].

Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) metodikasining afzalliklari O'zbekiston sharoitida ham bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

*Birinchi*dan, bu yondashuv o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. An'anaviy chet tili darslarida ko'pincha grammatik qoidalar va lug'at yodlashga urg'u beriladi, bu esa uzoq muddatli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. CLIL esa tilni bevosita fan mazmuni orqali o'rgatadi, natijada o'quvchilar o'rganayotgan tilning real hayotdagi amaliy qiymatini anglaydilar.

*Ikkinchi*dan, CLIL yondashuvi yordamida o'quvchilar akademik til kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida ingliz tilida ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish yoki xorijiy universitetlarda tahsil olishni rejalashtirgan bitiruvchilar uchun nihoyatda muhimdir. Masalan, tabiiy fanlar bo'yicha ingliz tilida o'qitilgan mavzular keyinchalik oliy ta'limda fanga oid terminlarni tez va aniq tushunishga yordam beradi.

*Uchinchi*dan, CLIL madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Fan mavzulari orqali o'quvchilar turli mamlakatlarning ilmiy yutuqlari, tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari bilan tanishadilar. Bu esa ularni global fuqarolik tamoyillariga mos ravishda ochiq fikrli, tolerant shaxs sifatida tarbiyalaydi.

*To'rtinchi*dan, CLIL o'quvchilarning kognitiv salohiyatini oshiradi. Dars jarayonida o'quvchilar nafaqat yangi til birliklarini, balki ilmiy tushunchalarni ham birgalikda o'zlashtiradi. Bu miyada murakkab assotsiativ bog'lanishlar hosil bo'lishiga olib keladi va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Psixolingvistlar fikriga ko'ra, ikki yoki undan ortiq tilni faol ishlatish inson miyasi neyroplastikligini oshiradi va ijodiy fikrlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida CLILning imkoniyatlari quyidagi amaliy misollarda yaqqol ko'rinadi:

1. Masalan, biologiya darsida "O'simliklarning fotosintez jarayoni" mavzusi ingliz tilida o'qitilsa, o'quvchilar nafaqat biologik jarayon mohiyatini tushunadilar, balki "photosynthesis", "chlorophyll", "carbon dioxide" kabi fanga oid terminlarni ham amalda qo'llashni o'rganadilar.
2. Tarix darsida "Buyuk Ipak yo'li" mavzusi ingliz tilida o'qitilsa, o'quvchilar jahon tarixiga oid terminologiyani o'zlashtirish bilan birga, O'zbekistonning global tarixdagi o'rnini ham xalqaro kontekstda tushunishga erishadi.
3. Kimyo darsida "Acid and Base Reactions" mavzusini CLIL asosida o'rganish orqali o'quvchilar kimyoviy reaksiyalarni ingliz tilida tushuntira oladi va bu ularga kelajakda ilmiy maqola yozishda qo'l keladi. Shunday qilib, CLIL metodikasi o'quvchiga bir vaqtning o'zida uch yo'nalishda – til, fan va madaniyat sohalarida rivojlanish imkonini beradi. Bu esa uni O'zbekiston ta'lim tizimida strategik ahamiyatga ega yondashuvga aylantiradi.

CLIL metodikasini O'zbekiston ta'lim tizimiga keng miqyosda tatbiq etish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular xalqaro tajriba va mahalliy sharoitni hisobga olgan holda hal etilishi lozim. Birinchi va eng asosiy muammo – malakali kadrlar yetishmasligi. CLIL darslarini olib borish uchun pedagog nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki chet tilini yetarli darajada bilishi kerak. Afsuski, hozirgi kunda O'zbekistonning ko'plab umumta'lim maktablarida bunday ikki tomonlama kompetensiyaga ega o'qituvchilar soni juda kam.

Bu muammoni hal etish uchun:

1. Fan o'qituvchilari uchun ingliz tilini chuqurlashtirilgan kurslar tashkil etish;
2. Ingliz tili o'qituvchilarini fan metodikasi bo'yicha qayta tayyorlash;
3. Xalqaro CLIL trening va sertifikat dasturlariga pedagoglarni jalb qilish zarur.

Ikkinchi muammo – o'quv-metodik ta'minotning yetarli emasligi. CLIL darslari uchun oddiy darsliklar mos kelmaydi, chunki ularda til va mazmun integratsiyasi inobatga olinmagan bo'ladi. Xorijiy tajribada, masalan, Finlyandiya, Estoniya va Ispaniyada CLIL uchun maxsus ishlab chiqilgan qo'llanmalar mavjud bo'lib, ular til murakkabligini bosqichma-bosqich oshirib boradi va fanga oid leksikani kontekstdagi matnlar orqali o'rgatadi. O'zbekistonda bunday materiallarni yaratish uchun mahalliy mutaxassislar va xorijiy ekspertlar hamkorligida qo'shma ishchi guruhlar tuzish lozim. Uchinchi muammo – dars jarayonini rejalashtirishdagi murakkablik. CLIL darslari an'anaviy darslarga qaraganda ko'proq tayyorgarlik talab qiladi: o'quvchilarning til darajasiga mos material tanlash, topshiriqlarni integratsiyalash, fan va til bo'yicha baholash mezonlarini uyg'unlashtirish o'qituvchi zimmasiga qo'shimcha yuklama beradi. Bu borada boshqa mamlakatlarda sinovdan o'tgan usullarni moslashtirish foydali bo'lishi mumkin. Masalan, Italiyada CLIL o'qituvchilari uchun "Lesson Study" modeli asosida muntazam metodik seminarlar o'tkaziladi, Finlyandiya esa fan va til o'qituvchilari darslarni birgalikda rejalashtiradi. To'rtinchi muammo – baholash tizimining moslashmaganligi. CLIL darslarida baholash nafaqat fan mazmuniga, balki til qo'llash kompetensiyasiga ham asoslanishi kerak. Bu esa an'anaviy baholash tizimida qo'shimcha mezonlar joriy etilishini talab qiladi. Baholash jarayonida til xatolari uchun haddan tashqari past ball qo'yish emas, balki o'quvchining mazmunni yetkazish qobiliyatiga ko'proq e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni taklif etish mumkin:

1. CLIL bo'yicha milliy malaka oshirish markazini tashkil etish;
2. Mavjud fan darsliklariga ingliz tilidagi mazmuniy bo'limlarni qo'shish;
3. Pedagoglar uchun CLIL bo'yicha onlayn resurslar bazasini yaratish;
4. Xorijiy CLIL tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish;
5. CLIL darslarida baholashning integratsiyalashgan mezonlarini ishlab chiqish.

Bu tavsiyalar xalqaro tajribaga tayangan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, CLIL metodikasini O'zbekiston umumta'lim maktablari samarali tatbiq etish imkoniyati sezilarli darajada ortadi. O'zbekiston maktablari sharoitida muvaffaqiyatli CLIL darsini tashkil etish uchun dars jarayoni 4K modeli (kontent, kommunikatsiya, kognitsiya, madaniyat) asosida qurilishi lozim. Ushbu model o'quvchilarning fanga oid bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, chet tilidagi muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kontent (Mazmun). Mazmuniy jihatdan dars o'quv dasturidagi fanga oid aniq mavzuga asoslanadi. Masalan, geografiya fanidan "Orol dengizining ekologik inqirozi" mavzusi ingliz tilida o'tilsa, o'quvchilar nafaqat ekologik jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'ladi, balki desertification, ecosystem, environmental crisis kabi terminlarni amalda qo'llashni o'rganadilar. Mazmun tanlashda mavzuning o'quvchilar hayotiga dolzarbligi ham inobatga olinadi.

Kommunikatsiya (Muloqot). Dars davomida o'quvchilar ingliz tilida muloqotga jalb qilinadi. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi, guruhli munozaralar tashkil etadi, rolik yoki infografika asosida izoh berishni so'raydi. Masalan, biologiya darsida o'quvchilar "Water pollution" mavzusida bahs olib borishlari mumkin. Muloqot jarayoni oddiy so'z yodlash emas, balki fikr almashish, dalil keltirish, savollarga javob berish orqali amalga oshadi. Kognitsiya (Fikrlash). CLIL darsida o'quvchilar murakkab kognitiv jarayonlarga jalb qilinadi: tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish. Masalan, tarix darsida "Buyuk ipak yo'lining iqtisodiy ahamiyati" mavzusini o'qigan o'quvchilar o'tmish va hozirgi zamon savdo yo'llarini solishtirishadi, grafik yoki xarita asosida tahlil o'tkazadilar. Bu bosqich o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Madaniyat (Kross-madaniy tafakkur). Mazmun va til integratsiyalashgan darslar o'quvchilarni boshqa xalqlar madaniyati, tarixiy merosi va ilmiy yutuqlari bilan tanishtirish imkonini beradi. Masalan, kimyo darsida "Periodic Table" mavzusini o'qiyotganda, o'quvchilar elementlarni kashf etgan olimlar va ularning mamlakatlari haqida ma'lumot oladilar. Bu esa o'quvchilarda global fuqarolik va madaniy bag'rikenglik sifatlarini shakllantiradi.

Amaliy CLIL dars tuzilmasi (namuna):

1. Motivatsiya bosqichi (5 daqiqa) – mavzuga oid qiziqarli savol yoki tasvir asosida kirish.
2. Mazmunni tushuntirish (15 daqiqa) – fanga oid asosiy tushunchalarni ingliz tilida izohlash.
3. Muloqot faoliyati (10 daqiqa) – juftlik yoki guruhli munozara, rolli o'yin.
4. Tahlil va amaliy topshiriq (10 daqiqa) – diagramma, xarita, eksperiment yoki tajriba.
5. Xulosa va mustahkamlash (5 daqiqa) – asosiy tushunchalarni qayta ko'rib chiqish va uyga vazifa berish.

Shunday qilib, O'zbekiston maktablari uchun CLIL darsini samarali tashkil etish o'qituvchining puxta tayyorgarligi, metodik moslashuvchanligi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan o'quv muhiti yaratish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) metodikasining O'zbekistonda istiqbollari bevosita mamlakat ta'lim siyosatida belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unlashgan. So'nggi yillarda qabul qilingan "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ko'p tilli ta'lim konsepsiyasi CLIL'ni joriy etish uchun qulay huquqiy va tashkiliy asos yaratmoqda.



Birinchidan, CLIL metodikasini bosqichma-bosqich joriy etish orqali umumta'lim maktablari bitiruvchilarida ikki (ba'zan uch) tilda erkin muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu esa ularning oliy ta'limga kirish, xorijiy grant dasturlarida ishtirok etish va global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini sezilarli oshiradi.

Ikkinchidan, CLIL nafaqat chet tilini, balki fan bo'yicha ham mustahkam tayyorgarlik beradi. Masalan, matematika, fizika, biologiya yoki tarix fanlari CLIL asosida o'tilganda, o'quvchilar mazkur sohalaridagi xalqaro atamalar va konseptlarni to'g'ridan-to'g'ri asl manbalardan o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ilmiy izlanish olib borish va xorijiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi.

Uchinchidan, CLIL ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni olib kiradi. Darslar ko'proq interfaol bo'lib, o'quvchilar mustaqil izlanish, loyiha ishlari, tajriba va bahs-munozaralarda faol ishtirok etadi. Bu esa zamonaviy "o'quvchi markazli" ta'lim konsepsiyasiga to'la mos keladi. Shu bilan birga, CLIL'ni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun quyidagi strategik choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi: milliy CLIL yo'l xaritasini ishlab chiqish – unda darsliklar yaratish, o'qituvchilarni tayyorlash, baholash tizimini moslashtirish va monitoring mexanizmlarini belgilash. Pilot maktablar tarmog'ini kengaytirish – dastlab poytaxt va viloyat markazlarida CLIL sinflarini ochib, keyinchalik butun respublika bo'ylab joriy etish. O'qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini joriy etish – xorijiy tajribaga ega trenerlar ishtirokida qisqa muddatli va sertifikatli kurslar tashkil etish. Mahalliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – Yevropa CLIL assotsiatsiyalari, Britaniya Kengashi, AQSh va boshqa davlatlarning ta'lim markazlari bilan qo'shma loyihalar. CLIL resurslar bazasini yaratish – dars ishlanmalari, audio-video materiallar, interfaol mashqlar to'plami va baholash vositalari.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, CLIL metodikasi O'zbekiston ta'lim tizimida nafaqat xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, balki o'quvchilarning global kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga, kelajak avlodning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, CLIL'ni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish strategik ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori. <https://lex.uz/docs/-2126032>
2. "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. European Commission. (2006). Content and Language Integrated Learning (CLIL) at School in Europe. Brussels: EURYDICE.
4. Graddol, D. (2006). English Next. British Council.
5. Alimova, E.N., Yuldasheva, M.B. (2020). The Implementation of CLIL at Uzbek Secondary Schools as an Educational Approach. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(7), 163–169.
6. Mehisto, P., Marsh, D., Frigols, M.J. (2008). Uncovering CLIL. Macmillan Education.
7. Marsh, D., Maljers, A., Hartiala, A-K. (2001). Profiling European CLIL Classrooms. University of Jyväskylä.
8. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. (2010). Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
9. Dalton-Puffer, C. (2008). Outcomes and processes in Content and Language Integrated Learning (CLIL): Current research from Europe. Annual Review of Applied Linguistics, 28, 42–69.
10. Marsh, D. (2002). CLIL/EMILE – The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential. European Commission.
11. Mehisto, P. (2012). Criteria for producing CLIL learning material. Encuentro, 21, 15–33.
12. Sylvén, L.K. (2013). CLIL in Sweden – Why does it not work? AILA Review, 26, 77–100.
13. Banegas, D.L. (2012). Integrating content and language in English language teaching in secondary education: Models, benefits, and challenges. Studies in Second Language Learning and Teaching, 2(1), 111–136.
14. Coyle, D. (2006). Developing CLIL: Towards a Theory of Practice. APAC Monographs, 6.
15. Lasagabaster, D., Sierra, J.M. (2010). Immersion and CLIL in English: More differences than similarities. ELT Journal, 64(4), 367–375.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.